
Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati ilovalarining lingvistik imkoniyatlari

Tuychiyev Sobir Abdusodikovich²

s.tuychiev@uzswlu.uz

Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada elektron ko'p tilli terminologik lug'atlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida tutgan o'rni, ularning lingvistik, didaktik va texnologik imkoniyatlari yoritiladi. Elektron terminologik lug'atlarning ilmiy-tadqiqot, ta'lim va tarjima jarayonlaridagi ahamiyati, shuningdek, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada ko'p tillilik, tezkor qidiruv, terminologik birliklarni tizimlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida lug'at yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar *Elektron lug'at, ko'p tilli terminologiya, terminografiya, axborot texnologiyalari, tarjima, kasbiy kompetensiya*

Лингвистические возможности приложений электронных многоязычных терминологических словарей

Туйчиев Собир Абдусодикович

s.tuychiev@uzswlu.uz

Руководитель Центра цифровых
образовательных технологий,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *В статье рассматриваются электронные многоязычные терминологические словари в условиях развития информационно-коммуникационных технологий. Анализируются их лингвистические, дидактические и технологические возможности, а также роль в образовательной, научной и переводческой деятельности. Особое внимание уделяется вопросам многоязычия, систематизации терминов, быстрого поиска и использованию цифровых технологий при создании терминологических ресурсов.*

Ключевые слова *Электронный словарь, многоязычная терминология, терминография, информационные технологии, перевод, профессиональная компетентность*

Linguistic Capabilities of Electronic Multilingual Terminological Dictionary Applications

Tuychiyev Sobir Abdusodikovich

s.tuychiev@uzswlu.uz

Head of the Center for Digital Educational
Technologies,
Uzbek State World Languages University

Annotation *This article examines electronic multilingual terminological dictionaries in the context of rapid development of information and communication technologies. It*

² Tuychiyev S.A. — ORCID: 0009-0007-0561-262X

analyzes their linguistic, educational, and technological potential, as well as their role in academic research, education, and translation practice. Particular attention is paid to multilingualism, fast information retrieval, terminology systematization, and the use of digital technologies in the development of terminological resources.

Keywords

Electronic dictionary, multilingual terminology, terminography, information technologies, translation, professional competence

XXI asr axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashtirishning yuqori darajasi va uzluksiz ilmiy-texnik taraqqiyot bilan tavsiflanadi. Shu bois, jamiyatning uyg'un rivojlanishiga hissa qo'shuvchi mavjud bilimlarni muntazam yangilash va yangi yutuqlarni qayd etish zarurati paydo bo'lmoqda. Xalqaro ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik hamda axborot texnologiyalari rivojlanishining bugungi holati elektron ko'p tilli atamalar lug'atini yaratishni taqozo etmoqda. Bunday turdagi elektron leksikografik nashr kelajakda samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, malaka, bilim va tajriba almashish, shuningdek, ilmiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va fan-texnika yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq etishga xizmat qiladi. Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati – bu kodlangan lug'at maqolalarini o'z ichiga olgan kompyuter ma'lumotlar bazasi bo'lib, u so'zlarning morfologik shakllarini inobatga olgan holda kerakli birliklarni tezkor qidirish, so'z birikmalarini aniqlash va tarjima jarayonida to'g'ri ma'noni tanlash imkonini beradi. O'zbek tilshunosligida Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar "til birliklarini avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash va terminologik tizimni izchil modellashtirishga xizmat qiluvchi muhim leksikografik vosita" sifatida talqin etiladi (Mavlonova, 2024).

Ko'p tilli elektron atamalar lug'atiga bo'lgan ehtiyoj nafaqat ilmiy tadqiqotlarni obyektivlashtirish, turli fan sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy faoliyatini optimallashtirish va samaradorligini oshirish zarurati bilan, balki keng foydalanuvchilar auditoriyasining ham lingvistik va

ixtisoslashgan kasbiy ma'lumotlarga bo'lgan talabining ortib borishi bilan bog'liq. Rus leksikografiya maktabi vakillarining ta'kidlashicha, elektron terminologik lug'atlar "maxsus bilimlarni tizimlashtirish, terminlarning semantik chegaralarini aniqlash va fanlararo muloqotni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega" (Берков, 2004, 57-59).

Ko'p tilli elektron atamalar lug'atidan foydalanish ishonchli faktik materiallar to'plamiga tez va qulay kirishni ta'minlaydi, bu esa mutaxassislarning tahliliy va ilmiy faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. V.P. Berkov va V.M. Leychiklarning fikriga ko'ra, terminologik lug'at "faqat ma'lumot manbai emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi kognitiv vosita" ham hisoblanadi (Лейчик, 2009, 112).

Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati – bu atamaning izohini olish, uning morfologik va semantik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot berish, tushunchaning mohiyatini ochib berish hamda asl manbaga havola qilish imkonini beruvchi zamonaviy raqamli leksikografik vositadir. O'zbek olimasi D. Mavlonova ta'kidlaganidek, AKT terminologiyasiga oid Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar "milliy terminologik tizimni boyitish bilan birga, xalqaro ilmiy muloqotda terminlarning ekvivalentligini ta'minlaydi" (Mavlonova, 2024, 15-18).

Shu sababli, Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati talabalar, yosh olimlar, turli fan sohalarida mutaxassislari, shuningdek, xalqaro kompaniyalar va tarjima agentliklari xodimlari uchun fundamental bilimlarni o'zlashtirish va kasbiy malakani oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, elektron ko'p tilli

atamalar lug'ati tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasida yangi empirik va korpusga asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi (Лейчик, 2009; Mavlonova, 2024).

Zamonaviy tarjima va til texnologiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida kelajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (Carl, 2020; Kaifang & Chunle, 2023; Lan, 2023). Bu holat talabalar ta'limini tashkil etishning turli shakllarini, xususan, raqamli va onlayn formatlarni ilmiy jihatdan qayta baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Sun'iy intellekt va mashina tarjimasi asosidagi ta'lim vositalarining jadal rivojlanishi sharoitida tarjima faoliyatining kognitiv jarayonlarini takomillashtirish, shuningdek, Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar va kompyuterga asoslangan tarjima dasturlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda (Carl, 2020; Folaron, 2010).

Jahon ilmiy tadqiqotlari va amaliyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi, ayniqsa sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalarining qo'llanilishi keng yoritilgan (Church & Hovy, 1993; Feng, 2018; Lan, 2023). Xususan, mashina tarjimasi va Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishni jadallashtirishi, terminologik birliklarni tezkor aniqlash va ularning ekvivalentlarini topish imkonini berishi isbotlangan. Bu jarayon talabalar orasida mustaqil fikrlash, nostandart masalalarni hal etish va kasbiy muammolarga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi (Wang, 2022; Mandal, 2018).

Bir qator tadqiqotlarda elektron va kompyuterga asoslangan tarjima vositalarining motivatsion va kognitiv omillarga ta'siri tahlil qilingan. Xususan, korpusga asoslangan tarjima tadqiqotlari tarjima jarayonida terminlarning semantik va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi (Hu, 2012). Shu bilan birga, sun'iy intellektga asoslangan tarjima va

lug'at ilovalari talabalarni turli axborot manbalarini mustaqil izlash, tanlash va tahlil qilishga undashi qayd etiladi (Luo, Jin & Li, 2022).

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, zamonaviy tarjima vositalari nafaqat tarjima sifatini oshiradi, balki talabalarda analitik tafakkur, kognitiv moslashuvchanlik va til birliklarini chuqur anglash qobiliyatini rivojlantiradi (Carl, 2020; Wang, 2022). Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari va Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi, ularning akademik va kasbiy harakatchanligini oshiradi (Kaifang & Chunle, 2023; Lan, 2023).

Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar yaratish va ulardan foydalanish masalasi ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, kompyuterga asoslangan tarjima dasturlari va Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar terminologik birliklarni tizimlashtirish, ularning ko'p tilli ekvivalentlarini aniqlash hamda tarjima jarayonini avtomatlashtirishda muhim vosita sifatida qaraladi (Folaron, 2010; Luo, Jin & Li, 2022). Mashina tarjimasi yondashuvlarining imkoniyatlari va cheklolari, shuningdek, tarjima sifatini baholash mezonlari ham alohida tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilmoqda (Okpor, 2014; Rosemary, 2015).

Ba'zi olimlar elektron ko'p tilli atamalar lug'ati va tarjima vositalarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning til o'rganish jarayonidagi samaradorligini asoslab berganlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar va AI asosidagi tarjima tizimlari chet tillarini o'rganishda terminologik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi (Feng, 2018; Lan, 2023). Shu bilan birga, mashina tarjimasi va lug'at ilovalari orqali kognitiv xatolarni aniqlash va tuzatish mexanizmlari ham tahlil qilingan (Wang, 2022).

Demak, yosh mutaxassislarining tanlangan soha terminologiyasini mukammal o'zlashtirishi, o'z ona tili bilan bir qatorda xorijiy

tillarda ham terminlardan erkin foydalanishi zamonaviy tarjima va elektron ko'p tilli atamalar lug'ati vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bois, sun'iy intellekt, mashina tarjimasi va Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim didaktik va texnologik omil sifatida namoyon bo'lmoqda (Carl, 2020; Kaifang & Chunle, 2023).

Elektron ko'p tilli terminologik lug'at tegishli terminologik leksemalar haqida ishonchli ma'lumot topish va ularning kasbiy nutqda qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. Zamonaviy terminografiyada bunday lug'atlar "ilmiy bilimlarni tizimlashtiruvchi va kasbiy muloqotni optimallashtiruvchi universal vosita" sifatida talqin etiladi (Berkov, 2004, 57-59; Leichik, 2009, 110-114). Elektron ko'p tilli atamalar lug'atilar talabalar, magistrantlar, aspirantlar, yosh olimlar, fan va texnika sohasidagi mutaxassislar, xalqaro kompaniyalar xodimlari, harbiy xizmatchilar va boshqa foydalanuvchi guruhlariga mo'ljallangan.

O'quv-kasbiy vazifalarning muvaffaqiyati bevosita bunday leksikografik nashrning sifatiga bog'liq. Ingliz leksikografi S. Atkins elektron va ko'p tilli lug'atlar "terminning nafaqat tarjima ekvivalentini, balki uning real nutqdagi funksional xususiyatlarini ham ochib berishi lozim"ligini ta'kidlaydi (Atkins, 1998, 21-23). Elektron ko'p tilli atamalar lug'atilar foydalanish uchun qulay, ko'p sonli terminologik birliklarni o'z ichiga oladi va keng tillar doirasi bilan ajralib turadi, bu esa uni an'anaviy bosma lug'atlardan farqlaydi. Lug'at bir qator muhim ta'limiy va kasbiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- **axborot beruvchi** – ma'lum bir bilim sohasi terminologiyasi haqida to'liq ma'lumot berish va tushunchaning asosiy xususiyatlarini yoritish;
- **me'yoriy** – terminologik birliklarning morfologik va grammatik jihatdan to'g'ri qo'llanishini ta'minlash; **-imloviy** – atamaning to'g'ri yozilishi bilan tanishtirish.

Fransuz terminologi F. Gaudin terminologik lug'atni "fanlararo bilimlarni uzatuvchi va tushunchalararo munosabatlarni ochib beruvchi kognitiv model" sifatida baholaydi (Gaudin, 2003, 84-86). Shu bois Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati larda tarjima muqobillari, ularning sinonimik variantlari va izohli tavsiflari berilishi muhim hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida ham elektron terminologik lug'atlar milliy terminologik tizimni birxillashtirish va xalqaro ilmiy muloqotni rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'riladi (Mavlonova, 2024, 15-18; Yo'ldoshev, 2019, 42-44).

Elektron ko'p tilli terminologik lug'at tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi hamda tegishli soha terminologiyasini standartlashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro terminologiya assotsiatsiyasi vakillari terminlar bazasi va Elektron ko'p tilli atamalar lug'ati lar fan-texnika taraqqiyotining ajralmas qismi ekanligini qayd etadilar (Cabr , 1999, 167-170).

Elektron ko'p tilli atamalar lug'atilar elektron ko'p tilli lug'at uchun keng qamrovli funksional imkoniyatlarni ta'minlaydigan PHP, HTML, CSS va JavaScript kabi zamonaviy dasturlash tillari asosida ishlab chiqilgan. PHP yordamida MVC arxitektura namunasi asosida administrator paneli yaratilgan, ma'lumotlar manbai sifatida esa MySQL relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tanlangan. Bu texnologik yondashuv lug'atni doimiy yangilash, tezkor qidiruv va foydalanuvchi bilan interaktiv muloqotni ta'minlaydi (Folaron, 2010, 431-433).

Shunday qilib, elektron terminologik lug'at tezkor qidiruv, ko'p tillilik va foydalanish qulayligi bilan ajralib turadi. So'rovnoma natijalari ham elektron ko'p tilli atamalar lug'atilarining amaliyligi, ma'lumotlarni tizimlashtirish, morfologik va grammatik yordam, tarjima muqobillarini taqqoslash imkoniyati kabi afzalliklarini foydalanuvchilar yuqori baholaganini ko'rsatadi. Xususan, elektron ko'p tilli atamalar lug'atilar talabalar uchun maxsus fanlarni chuqur o'rganishda,

magistrant va yosh olimlar uchun ilmiy izlanishlar doirasini kengaytirishda, tarjimonlar va xalqaro kompaniyalar xodimlari uchun esa kasbiy muloqotni samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nomlangan raqamli resurs nafaqat foydalanuvchining (xoh tajribali mutaxassis bo'lsin, xoh maxsus atamalar bilan shug'ullanuvchi talaba) vaqtini tejaydi, balki ularni keng qamrovli ko'p tilli muhit bilan tanishtiradi. Ko'plab lug'atshunoslik nashrlaridan farqli o'laroq, elektron ko'p tilli atamalar lug'atlar o'z maqsadli auditoriyasini boyitadigan va xalqaro hamkorlikni imkoniyatini yaratadigan, til jihatidan to'laqonli lug'at namunasidir. Bundan tashqari, u atamalarning Yevropa tillarida qo'llanilishini qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, atamalarning talqinini chuqurroq tahlil qilishga ko'maklashadi. Ilmiy va akademik nutqda yagona fanlararo bazaning mavjud emasligi ko'pchilik tadqiqotchilarni faqat bitta bilim sohasiga oid atamalarni o'z ichiga olgan lug'atlardan foydalanishga majbur etadi.

Alohida ko'rsatilgan lug'atlar ko'pincha o'zaro kesishish nuqtalariga ega bo'lmaydi va rivojlanib borayotgan tarjima tilining amaldagi me'yorlariga muvofiq kelmaydi. Har bir ilmiy sohaning alohida-alohida rivojlanishi so'zlarning noaniq tushunilishiga va leksemalarning terminologik vazifasini yo'qotishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron ko'p tilli terminologik lug'atlar zamonaviy ilmiy, ta'limiy va kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular terminologik birliklarni tizimli ravishda taqdim etish, turli tillarda aniq va ishonchli ma'lumot olish, shuningdek, tarjima va fanlararo muloqotni samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunday lug'atlar talaba va yosh olimlarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi, mutaxassislarning kasbiy nutqini takomillashtiradi hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, elektron ko'p tilli terminologik lug'atlarni yaratish va amaliyotga joriy etish zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Atkins, S. (1998). *Using dictionaries: Studies of dictionary use by language learners and translators*. Max Niemeyer Verlag.
2. Berkov, V. P. (2004). *Vvedenie v terminografiyu: Uchebnoe posobie* [Introduction to terminography: A textbook]. Nauka.
3. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. John Benjamins.
4. Carl, M. (2020). Translation, artificial intelligence and cognition. In *The Routledge handbook on translation and cognition*. Routledge.
5. Church, K. W., & Hovy, E. H. (1993). Good applications for crummy machine translation. *Machine Translation*, 8, 239–258.
6. Feng, Z. (2018). Parallel development of machine translation and artificial intelligence. *Journal of Foreign Languages*, (16), 35–48.
7. Folaron, D. (2010). Translation tools. In *Handbook of translation studies*. John Benjamins.
8. Gaudin, F. (2003). *Socioterminologie: Une approche sociolinguistique de la terminologie*. De Boeck.
9. Hu, K. (2012). Corpus translation studies: Connotations and implications. *Journal of Foreign Languages*, 35(5), 59–70.
10. Kaifang, F., & Chunle, W. (2023). Translation studies in the era of artificial intelligence: Characteristics, fields and significance. *International Journal of Translation and Interpretation Studies*, 4(7), 58–67.

11. Lan, W. (2023). The impacts and challenges of artificial intelligence translation tools on translation professionals. *SHS Web of Conferences*, 163, Article 02021.
12. Leichik, V. M. (2009). *Terminovedenie: Predmet, metody, struktura* [Terminology studies: Subject, methods, structure]. URSS.
13. Luo, Q., Jin, E., & Li, Y. (2022). A survey on computer-aided translation software under the background of artificial intelligence: Based on Youdao Dictionary. *The Computer Age*, (8), 43–45, 55.
14. Mandal, P. C. (2018). Translation in qualitative studies: Evaluation criteria and equivalence. *The Qualitative Report*, 23(10), 2529–2537.
15. Mavlonova, D. F. (2024). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasining lingvistik va leksikografik xususiyatlari* [Linguistic and lexicographic features of information and communication technology terminology]. Fan va texnologiya.
16. Nasirov, A. (2012). *French–Uzbek–Russian proverbial phraseological dictionary*. Tafakkur.
17. Okpor, M. D. (2014). Machine translation approaches: Issues and challenges. *International Journal of Computer Science Issues*, 11(5), 159.
18. Olohan, K. (2011). Impact of information and communication technology education in Nigeria. *Journal of Information and Knowledge Management*, 1(2), 1–16.
19. Rosemary, M. S. (2015). A consideration of translation quality and standard. *International Journal of English Language and Literature Studies*, 8(12), 2908–2919.
20. Wang, Z. (2022). A study of the cognitive process of reconstructing lexical AI learning wrongly interpreted in collocation machine translation. *Translation Research and Teaching*, (2), 6–10.
21. Yoldoshev, B. Q. (2019). *O'zbek terminologiyasining dolzarb masalalari* [Current issues of Uzbek terminology]. Fan.